

Namangan viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026- yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 24,1 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20- apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bir xillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- iyul holatiga, birlik	2026- yil 1- iyul holatiga, birlik
Mingbuloq tumani	1179	1418
Kosonsoy tumani	1256	1351
Namangan tumani	1274	1377
Norin tumani	1131	1291
Pop tumani	1599	1720
To'raqo'rg'on tumani	1352	1483
Uychi tumani	1267	1356
Uchqo'rg'on tumani	1209	1494
Chortoq tumani	1382	1588
Chust tumani	1844	2066
Yangiqo'rg'on tumani	1248	1400
Namangan sh.	6907	7580

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-iyun oylarida 2266 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar- iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tashkil etilgan eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar soni savdo sohasida 943 ta, sanoat sohasida 318 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 267 ta hamda 718 ta boshqa xizmatlar hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2026- yilning yanvar- iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Namangan shahrida 669 ta, Mingbuloq tumanida 260 ta, Chust tumanida 185 ta, Chortoq tumanida 175 ta Uchqo'rg'on tumanida 163 ta, hamda To'raqo'rg'on tumanida 126 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2025- yil yanvar-iyul oylarida, birlik	2026-yil yanvar- iyul oylarida, birlik
Mingbuloq tumani	175	260
Kosonsoy tumani	158	95
Namangan tumani	96	92
Norin tumani	127	118
Pop tumani	151	137
To'raqo'rg'on tumani	99	126
Uychi tumani	107	121
Uchqo'rg'on tumani	119	163
Chortoq tumani	144	175
Chust tumani	122	185
Yangiqo'rg'on tumani	124	125
Namangan sh.	585	669

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi

2026- yilning yanvar-iyunda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 72,7 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 1,8 foizga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarish faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 503,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 51,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Norin tumani (100,0 %), Yangiqo'rg'on tumani (99,9 %), Pop tumani (93,5 %) va Namangan tumani (78,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 7 311,6 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 87,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan 105,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kosonsoy tumani (99,1 %) Yangiqo'rg'on tumani (98,4 %), Norin tumani (98,2 %), Uchqo'rg'on tumani (97,4 %) va hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 31 558,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 86,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan 121,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Kosonsoy tumani (98,0 %), Yangiqo'rg'on (96,7 %), Namangan shahar (93,6 %), Uchqo'rg'on tumani (92,3 %) va tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 20 821,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 96,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan 104,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulush Chust (99,6 %), Chortoq (99,4 %), Yangiqo'rg'on (99,2 %) Namangan shahar (98,9 %), tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 14 094,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 74,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan 121,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Namangan shahar (80,2 %), Chust t (79,3 %) Namangan t (77,9%) Mingbuloq t (75,8 %), tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 21 880,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 71,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan 113,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on t (81,6 %), Kosonsoy t (78,3 %) Namangan t (77,7 %), Uychqo'rg'on t (76,7 %) Norin t (76,4 %), tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar- iyunda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 186,6 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 47,4 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar- iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Norin, Yangiqo'rg'on, tumanlarida – 100,0 % Namangan tumanida – 97,8 %, Pop tumanida – 94,2 % va Mingbuloq tumanida – 72,9 %, ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar- iyunda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 365,7 million AQSH dollarini yoki jami importning 74,3 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar- iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Norin tumanida – 94,5 %, Pop tumanida – 94,3 %, Uychi tumanida – 93,9 %, Yangiqo'rg'on tumanida – 93,2 %, Mingbuloq tumanida – 91,5 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-iyunda, avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 92,9 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,1 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,5 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,7 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunda avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,4 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9,% ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunda avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,0 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini 2026- yilning yanvar- iyunida **a'lo** deb baholagan korxonalar ulushi 13,7 %, **yaxshi** deb baholagan korxonalar ulushi 53,3 %, **o'rtacha** deb baholagan korxonalar ulushi 29,5 %, **yomon** deb baholagan korxonalar ulushi 3,5 % ni tashkil qilgan.

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan korxonalar ulushi 33,0 %, **o'zgarishsiz** deb baholagan korxonalar ulushi 61,9 %, **yomonlashish** deb baholagan korxonalar ulushi 5,1 %, ni tashkil qilgan.

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli o'zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan korxonalar ulushi 43,9 %, o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 53,4 %, yomonlashish deb baholagan korxonalar ulushi 2,7 %, ni tashkil qilgan.

Umum iqtisodiy vaziyatining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini Joriy davrda **a'lo** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 16,7 %, Qurulishda ulushi 15,8 %, Savdo ulushi 14,8 %, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ulushi 13,3 %, ni tashkil qilgan.

Joriy davrda **yaxshi** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ulushi 66,7 %, Savdo ulushi 57,9 %, Yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar ulushi 57,1 %, Tashish va saqlash ulushi 55,2 %, ni tashkil qilgan.

Joriy davrda **o'rtacha** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Axborot va aloqa ulushi 50,0 % Boshqalar ulushi 36,9 %, Tashish va saqlash ulushi 34,5 %, Sanoatda ulushi 33,5 %, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 33,3 %, ni tashkil qilgan.

Joriy davrda **yomon** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Qurilish ulushi 6,3 %, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 5,6 %, Sanoat ulushi 3,5 %, ni tashkil qilgan.

Umum iqtisodiy vaziyatining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Savdo ulushi 37,5 %, Xizmatlar ulushi 32,9 %, Qurilish ulushi 32,8 %, Sanoatda ulushi 32,1 %, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 22,0 %, ni tashkil qilgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar **o'zgarishsiz** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 70,7 %, Xizmatlar ulushi 63,9 %, Qurilish ulushi 62,4 %, Sanoatda ulushi 61,3 %, Savdo ulushi 58,1 %, ni tashkil qilgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar **yomonlashish** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 7,3 %, Sanoatda ulushi 6,6 %, Qurilish ulushi 4,8 %, Savdo ulushi 4,4 %, Xizmatlar ulushi 3,2 %, ni tashkil qilgan.

Umum iqtisodiy vaziyatining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli joriy davrdagi o'zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Savdo ulushi 47,9 %, Qurilish ulushi 46,4 %, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 46,3 %, Xizmatlar ulushi 42,7 %, Sanoatda ulushi 39,2 %,ni tashkil qilgan.

Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli joriy davrdagi o'zgarishlar **o'zgarishsiz** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Sanoatda ulushi 57,3 %, Xizmatlar ulushi 55,5 %, Qurilish ulushi 51,2 %, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 50,0 %,Savdo ulushi 49,5 %, ni tashkil qilgan.

Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli joriy davrdagi o'zgarishlar **yomonlashish** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi 3,7 %, Sanoatda ulushi 3,5 %, Savdoda ulushi 2,6 %, Qurilish ulushi 2,4 %, Xizmatlar ulushi 1,8 %, ni tashkil qilgan.

VI.Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.